

BOSH HARFLAR IMLOSI

BOSH HARFLAR IMLOSI



1. Kishining ismi,
ota ismi, familiyasi,
taxallusi, ramziy
atoqli oti bosh harf
bilan boshlanadi:

Dilbar, O‘rinova, Muhabbat
Majidovna, Azamat Shuhrat o‘g‘li,
Hamza Hakimzoda,
Muhammadsharif So‘fizoda,
Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat;
Yelpig‘ichxon, Salomjon Alikov
kabi.

BOSH HARFLAR IMLOSI



2. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: Andijon, Yangiyo‘l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig‘atoy (mahallalar), Qoratog‘, Pomir (tog‘lar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi.

Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum kabi.

BOSH HARFLAR IMLOSI



3. Yulduz va sayyora,
boshqa xil osmon
jismining atoqli oti bosh
harf bilan boshlanadi:
Hulkar, Qavs, Mirrix
kabi.

Yer, quyosh, oy turdosh
otlari sayyora nomi
bo'lib kelgandagina bosh
harf bilan yoziladi: *Yer*
Quyosh atrofida, Oy Yer
atrofida aylanadi.

BOSH HARFLAR IMLOSI



4. Muhim tarixiy sana
va bayram nomi
tarkibidagi birinchi soʻz
bosh harf bilan
boshlanadi:

*Mustaqillik kuni, Xotira
kuni, Ramazon hayiti,
Navroʻz bayrami kabi.*

BOSH HARFLAR IMLOSI



5. Davlat, davlat oliy tashkiloti va mansabining, xalqaro tashkilot nomidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi:



Oʻzbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, Vazirlar Mahkamasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.

BOSH HARFLAR IMLOSI



6. Boshqa tarkibli
nomda oliy mansabni
bildiruvchi birinchi
soʻzgina bosh harf bilan
boshlanadi:



*Bosh vazirning
oʻrinbosari, Mudofaa
vaziri, Yozuvchilar
uyushmasi, Oʻzbekiston
Milliy tiklanish
demokratik partiyasi
kabi.*

BOSH HARFLAR IMLOSI



7. Vazirlik va idora,
korxona va tashkilot
nomi tarkibidagi
birinchi soʻz bosh harf
bilan boshlanadi:



*Sogʻliqni saqlash vazirligi,
Fan va texnika davlat
qoʻmitasi, Fanlar
akademiyasi, Tilshunoslik
instituti kabi.*

BOSH HARFLAR IMLOSI



7. Davlatning oliy
darajali mukofoti nomi
tarkibidagi har bir soʻz
bosh harf bilan
boshlanadi:



*Oʻzbekiston
Qahramoni*” (unvon),
“Oltin Yulduz”(medal)
kabi.

BOSH HARFLAR IMLOSI



Boshqa mukofot, faxriy unvon, nishon nomidagi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi:



“Sogʻlom avlod uchun”
(orden), *“Oʻzbekistonda
xizmat koʻrsatgan fan
arbobi”* (faxriy unvon),
“Matbaa aʼlochisi”
(nishon) kabi.

BOSH HARFLAR IMLOSI




8. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi:



BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti),
AES (Atom elektr stansiyasi) kabi.

BOSH HARFLAR IMLOSI



Qisqartma tarkibida bo‘g‘inga teng qism bo‘lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi:

ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

BOSH HARFLAR IMLOSI



9. Gapning birinchi
soʻzi bosh harf bilan
boshlanadi:



*Yer tagidan Muqaddasga
bir qarab oldim
(O. Yoqubov).*

BOSH HARFLAR IMLOSI ESLATMA



Butunning qismlari sanalgan paytda gapning qismlari **raqam yoki harfdan keyin nuqta** qo'yib sanalsa, bunday qismlar **bosh** harf bilan yoziladi:



Hozirgi o'zbek tilining lug'at boyligi besh manbadan iborat:

1. *Umumturkiy so'zlar.*
2. *O'zbekcha so'zlar.*
3. *Tojikcha so'zlar.*
4. *Arabcha so'zlar.*
5. *Ruscha so'zlar.*

BOSH HARFLAR IMLOSI

Ammo butunning qismlari sanalgan paytda gapning sanaluvchi qismlari xatboshiga chiqarilganda bunday qismlar oldidan tire qo'yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o'zbek tilining lug'at boyligi besh manbadan iborat:

- umumturkiy so'zlar;
- o'zbekcha so'zlar;
- tojikcha so'zlar;
- arabcha so'zlar;
- ruscha so'zlar.

BOSH HARFLAR IMLOSI



Ammo butunning qismlari sanalgan paytda gapning qismlari **qavsli raqam** yoki **qavsli harf** qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:



Hozirgi o'zbek tilining lug'at boyligi besh manbadan iborat:

- 1) umumturkiy so'zlar;*
- 2) o'zbekcha so'zlar;*
- 3) tojikcha so'zlar;*
- 4) arabcha so'zlar;*
- 5) ruscha so'zlar.*

BOSH HARFLAR IMLOSI



Butunning qismlari
sanalgan paytda ba'zan
gapning qismlari yangi
qatordan kichik harf bilan
yoziladi:



*Hozirgi o'zbek tilining lug'at
boyliги besh manbadan
iborat:*

*umumturkiy so'zlar;
o'zbekcha so'zlar;
tojikcha so'zlar;
arabcha so'zlar;
ruscha so'zlar.*

E'tiboringiz uchun rahmat!